

ALISHER NAVOIY IJODIDA SHUKRONALIK TALQINI

Sobirov Zafar Karimovich


Amrullayeva Mahliyo Abdurahmonovna

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi 2-sonli

Toshkent akademik litsey o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy(1441-1501) o'z she'rlarida , asarlarida shukronalikni yoritib buni o'z she'rlarida izohlab batafsil qilib yoshlarga yoritib berganligiga amin bo'lamiz.

Kalit so'zlar: “Badoye’ ul – vasat“ , Alisher Navoiy , “G`aroyib us-sig`ar”ning 10-qit’asi, qit’asi, tamsiliy .



Ulki, iflosdina yog'inda
Kafsh yo'li azmi chog'I yo'qtur oning,
Shukur qildik boqib birav sori –
Ki yururg'a ayog'I yo'qtur oning.
“Badoye’ ul – vasat“ ning 41-qit’asi

Milliy – ma’naviy qadriyatlarimiz orasida shukurning o’rni – bo’lak. Biz o’zbek xalqi shukronasi kuchli xalqimiz. Azaldan biror bir muammoni noshukurlig- u norozilik bilan yechib bo’lmaydi. Hayotning har bir ne’matiga shukr qilgan kishida kelajakka umid, maqsad sari harakat to’xtamaydi. O’zbek xalqining urf-odatlaridan biri bu har bir o’tgan lahzaga shukr qilishdir. Ammo adabiyotda shukr targ’ib iborasida Alisher Navoiyning yuqorida keltirilgan qit’asidagidek hayotiy – tamsiliy namuna ham topiladi. Bunday asosiy ma’no oyoqqa kiyishga kovushi yo’q kishi, kovush kiyishga oyog’i borligiga shukr qilishi kerakligi aytilgan. Birinchi baytda yo’lga chiqqan odamning turli xildagi narsalardan himoya qilish uchun oyog’iga kiyishga kovushi yo’qligi haqida ma’lumot keltiriladi . Lekin ikkinchi baytda u odam shukr qilsin, chunki yurishga oyog’i bor. Boshqa bironvga qarasin, atrofni kuzatsin ularning yurishga oyog’i yo’q. Alisher Navoiyning qit’a va g’azallari o’zbek xalq maqollari bilan ma’nodosh bo’lib kelish xususiyatiga ham ega. Aynan mana shu qit’ada mingni ko’rib fikr qil, birni ko’rib shukr qil o’zbek xalq maqoli ilgari surilgan. Shoir yaratgan qit’adagi qiyos – juda ta’sirchan. Kiyishga kovushi bo’lmasa ham to’rt muchasi but odam oyog’i borligiga shukr qilishi shart va lozim. Bosh omon bo’lsa, do’ppi topiladi, maqolda aytilgandek, oyoq omon bo’lsa kovush topiladi. So’z mulkining sultoni, g’azal mulkining gultoji bo’lmish, Alisher Navoiyning shukronalik dav’atini bugungi o’zbek yoshlari timsolida ko’rishimiz mumkin. Hozirgi kundagi berilayotgan imkoniyatlardan intiluvchan yoshlar

oqilona foydalanib kelmoqdalar. O'tgan yillarga nazar soladiga bo'lsak, bunday shart-sharoit, bunday imkoniyat bo'lmagan. Bugungi kunda dunyoning qaysi mamlakatiga bormang, har sohada yoshlarni ko'ramiz. Ilm o'rganib, shukrona aytish har bir yosh avlod uchun ham qarz, ham farzdir. Alisher Navoiyning yana bir mashhur qit'alarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biaynih
Erur hammomdin nopok chiqmoq.
“G'aroyib us-sig'ar”ning 10-qit'asi.

Shoir birinchi baytdayoq o'quvchiga murojat qilib, o'zini kamolga yetkazishni kasb qilib olishga da'vat etadi. Chunki, muqaddas maskan hisoblanmish, oliygohdan hech narsa o'rganmay chiqish farz hisoblanmaydi. Ikkinchi baytda bu dunyodan notamom, kamolga yetmasdan o'tish xuddi hammomga kirib, chala yuvinib, chiqqanday gap. Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o'zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi. U o'zbek adabiy tili, o'zbek mumtoz adabiyotini yangi pog'onaga ko'tardi. Navoiy o'ttizdan ortiq yirik badiiy asar yozdi. “Xamsa”, “Xazoyin ul-maoniyy”, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr” shular jumlasidandir.²⁰

O'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy o'zining bebaho asarlarida ko'targan o'ta insonparvar g'oyalari bilan jahon adabiyotining buyuk namoyandalari qatoridan munosib o'rin egalladi. Navoiyning qaysi bir ijodiga qaramang, u yoshlarni har taraflama o'stirishga undaydi. Shoir hammomga kirib nopok chiqish qanchalik mantiqsiz bo'lsa, dunyoga kelib, kamolga yetmay o'tish ham shunchalik bema'nilik ekanini qit'ada yaqqol namoyon qilgan. O'zbekistonimizda mustaqillik yillarida barkamol avlod tarbiyasiga kelajak poydevori sifatida qaralib kelinmoqda. Zero, biz o'zbek xalqimiz, o'zbek yoshlarimiz. Bugungi tinch, osuda, ozod va obod mustaqil O'zbekistonda yashayotganimizning o'zi bir shukronalik belgisidir. Ota-bobolarimizdan meros qolgan muqaddas tinchlikdir. Hatto, Navoiy zamonida ham bunday tinchlik bo'lmagan. Lekin, uning har bir so'zidan shukrona aks etadi. Har bir kunimizga shukrona aytaylik aziz yoshlar!

²⁰ G'afur G'ulom nomidaginashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2014-y.